



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "QIZIL KITOBI" GA KIRITILGAN LOLADOSHLAR (LILIACEAE) OILASINING TAHLILI

M.O. Olimova

V.A. Ibrohimova

*ADPI Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti biologiya yo'nalishi 2-  
bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" ning 2016-2019- yillardagi nashriga kiritilgan Loladoshlar (Liliaceae) oilasining solishtirma tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.

**Annotation:** This thesis provides information on the comparative analysis of the Tulip family included in the 2016-2019 edition of the Red Book of the Republic of Uzbekistan.

**Аннотация:** В данной диссертации представлена информация по сравнительному анализу семейства Тюльпановых включенных в издание 2016-2019 годов Красной Книги Республики Узбекистан.

**Kalit so'zlar:** Qizil Kitob, kamyoblik darajasi, endemik, flora, fauna, muhofaza, antropogen, subtropik, vegetativ.

**Keywords:** Red Book, status, endemic, flora, fauna, environment, antropogen, subtropik, vegetation.

**Ключевые слова:** Красная Книга, статус, эндемик, флора, фауна, охрана, антропогенный, субтропический, растительность.

O'zbekistonning yo'qolib ketayotgan flora va fauna dunyosini muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" tashkil qilingan. Ushbu kitob yo'qolib borayotgan va yo'qolish havfi bo'lган o'simlik hamda hayvonlarni muhofaza qilish, ularni asrab qolish maqsadida tuzilgan davlat hujjati hisoblanadi. Insoniyat uchun o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish muhim hisoblanadi. Yurtimizning yo'qolib borayotgan va muhofazaga molik flora hamda fauna dunyosini asrab qolish, ularni kelajak avlodlarga yetkazish bo'yicha turli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'simliklarga insonlar tomonidan qilinayotgan antropogen omillar, ularni ildiz va tugunaklari bilan kovlab olish, gullari, mevalarini vegetatsiya davrida terib olish, mahalliy aholi tomonidan chorva mollarni betartib boqish na insonlar tomonidan o'simliklarning piyozlarini kovlab eksport qilinishi natijasida ham o'simliklar arealining va ularning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Noyob va yo'qolib ketish havfi bo'lган turlarni ro'yhatga olish ularni himoya qilish maqsadida 1948-yilda Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi (TMX) tashkil qilingan. 1966-yildan boshlab tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan birgalikda Xalqaro Qizil Kitobning 1984-yilgi nashri aynan floraga bag'ishlangan bo'lib, unda 163 turdag'i o'simliklar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi ilk bor 1979-yilda nashr etilgan. Qizil kitobning 1984-yilgi nashrida O'zbekiston florasining yo'qolib borayotgan 163 ta turi kiritilgan.

Loladoshlar oilasiga asosan ko'p yillik piyozi o'simliklar kiradi. Bu oila o'z tarkibiga 470 ga yaqin turlarni biriktiradi. Ular Shimoliy yarimsharlarning mo'tadil va subtropik hududlarida, G'arbiy Osiyo, Himolay va Sharqiy Osiyoda keng tarqalgan. Bu oilaning O'zbekiston hududida 4 tarkumi (Gagea, Tulipa, Rhinopctatum, Fritillaria) va 52 ta turi tarqalgan.

### **1-jadval**

#### **Loladoshlar oilasining O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" (2016) tahlili**

№	Turkum	Tur	Maqomi				Tarqalish mintaqasi			
			0	1	2	3	Tog'	Adir	Yaylov	Chol
1	Boychechak Gagea	1						+		
2	Isirg'agul Fritillaria	1						+		
3	Lola Tulipa	19					+	+	+	+
<b>Jami</b>	3	21	0	4	4	13	14	8	3	1

### **2-jadval**

#### **Loladoshlar oilasining O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" (2019) tahlili**

№	Turkum	Tur	Maqomi				Tarqalish mintaqasi			
			0	1	2	3	Tog'	Adir	Yaylov	Cho'l
1	Boychechak Gagea	1							+	
2	Isirg'agul Fritillaria	1							+	
3	Lola Tulipa	19						+	+	+
<b>Jami</b>	3	21	0	4	4	13	14	8		1

Ushbu tezisda Loladoshlar oilasining 2016-2019-yilgi nashrlari solishtirildi. Natijada bu oilaning tarkum va turlari soni har ikkala yilda bir xil ekanligi, maqomida ham o'zgarishlar bo'limgaganligi aniqlandi. O'rganishlar davomida bu oila vakillari maqomi jihatidan asasan 3chi ya'ni son jihatidan kamayib borayotgan o'simliklar ekanligi ko'zga tashlanadi. Oila vakillaridan ayrimlarini kamyoblik darajasi bo'yicha ko'rib chiqqanimizda Foster lolasi (Tulipa fosteriana Irving) juda kamyob endemik, Kaufman lolasi (Tulipa kaufmanniana Regel) kamayib borayotgan, Tubergen lolasi (Tulipa tuberginiana) kamyob yo'qolish arafasidagi, Ulug'vor lola (Tulipa ingens) kam tarqalgan endemik turlar ekanligi aniqlandi. Loladoshlar oilasining deyarli barcha vakillari hozirda madaniylashtirilgan bo'lib O'zbekiston Fanlari Akademiyasi Botanika bog'ida ularni muhofaza qilish maqsadida o'stirilib kelinmoqda. Bu o'simliklar piyoziidan va urug'idan ko'payadi. Faqat ayrim vakillari Lyudmila boychechagi (Gagea ludmilae levichev) asosan vegetativ ko'payib,



urug'idan ko'payishi kam kuzatiladi, Oraliq lola (*Tulipa intermedia*) esa faqat urug'i yordamida ko'payadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild Toshkent Chinor ENK 2016. 137-160 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild Toshkent Chinor ENK 2019 132-155 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild Toshkent Chinor ENK 2009.
4. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild Toshkent Chinor ENK 1984.
5. O'.Pratov, X.M.Xudoyberganov "Botanika darsliklarida qo'llaniladigan yuksak o'simliklar sistematikasiga oid kategoriya va taksonlar" tosh. 2004.